

(saforin) rutin va 47% mg S vitamini bor. Urug‘ida 15% o‘simlik yog‘i mavjud ekanligi aniqlangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Toxtaev.B, Maxkamov.T, To'laganov.A, Mamatkarimov.A, Maxmudov.A, Allayarov.M - Do'rivor va azuqabop o'simliklar plantatsiyalarini tashkil etish va xom-ashyosini taylorlash boyicha yo'riqnomalar – Toshkent,2015
- 2.Haydarov.K, Hodjimatov.K “O'zbekiston o'simliklari”. Qo'llanma/ Toshkent:O'qituvchi-1992
- 3.Xolmatov.X, Axmedov.W “Farmakognoziya. Darslik. Toshkent: Ibn Sino, 1995

## QORAQALPOQGISTONDA YAPON SAFORASI KO‘CHATINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

**Allanazarov B.J.<sup>1</sup>, Jumanova P.B.<sup>1</sup>, Bekbaeva K.Q.<sup>1</sup>,  
Saburov A.<sup>1</sup>, Masharipov I,G'.<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti Nukus filiali

<sup>2</sup>Urganch davlat universiteti

**Kirish.** Respublikamizda bozor iqtisodiyoti sharoitida bir qancha samarali, chuqurlashtirilgan aholi uchun daromad manbai hisoblangan bugungi kun uchun muhim va dolzarb hisoblangan islohatlar amalga oshirilmoqda. Bu sohada manzaralari va dorivor daraxt hamda butalaridan foydalanishi maqsadga muofiqdir. Mamlakatimizda yapon saforasi, soxta kashtan, aleya, qatorlar, guruhlar, yakkalab ekish uchun istirohat bog‘lari, skverlarda: qatorlar ko‘cha yashash joylaridagi, korxona va tashkilotlar atrofida ekish tavsiya etiladi.

Yapon saforasidan yukoridagilardan tashqari boshqa daraxt turlari bilan aralashtirib, sanoat korxonalar, avto va temir yo‘llar atrofini ko‘kalamzorlashtirishda foydalanish mumkin. Bu daraxt farmatsevtika sanoatida ekanligini bilgan holda, ulardan dorivor homashyosi yetishtirish maqsadida, maxsus plantatsiyalar barpo etilmoqda. Yapon saforasi (tuxumak) tez o‘suvchi tur, soyaga chidamli, shox- shabbalar ochiq joylarda sharsimon shaklda o‘sadi. Tuproqqa talabchan emas, sho‘r tuproqda ham o‘saveradi, ammo ozuqa elementlariga boy tuproqlarda yaxshi o‘sadi, qurg‘okchilik va gazga, changga, tutunga chidamli -25° S sovuqqa chidamli daraxt ,lekin unumdon tuproqlarda yaxshi rivojlanadi, qurg‘okchilikka, gaz va tutunga chidamli, shahar sharoitida yaxshi o‘sadi. 5-7 yoshdan boshlab gullaydi va meva hosil qiladi. Urug‘lari bilan oson ko‘payadi, ayrim manzaralari turlari payvand qilish yo‘li bilan ko‘paytirish mumkin. Bu esa O‘zbekistonda mustahqillikni yanada barqaror yanada davomiy va barhayot bo‘lishiga sohamiz bo‘yicha o‘z hissalarimizni qo‘sghan bo‘lamiz. Natijalar va ularning taxlili. Ko‘chatxonalar uchun ajratilgan maydon tekis yoki qisman (3-5<sup>0</sup>) nishablikdagi joylar tanlanadi. Ko‘chatxonalar uchun ajratilgan maydon kattaligi va shakli bo‘yicha ko‘chatxona mashtabida belgilangan ko‘rsatkichlarga to‘g‘ri kelishi,

entomologik zararkunandalardan holi, sug‘orish shahobchalariga va avtomobil yo‘llariga yaqin bo‘lishi kerak. Bunda asosan tuproqning strukturasi, gidrologik, yer tuzilishi sharoitlari hamda o‘stirib yetishtiriladigan daraxt va butalarning biologik xususiyatlari alohida e’tiborga olinadi. Shuningdek, sug‘orish manbalari, mashina va mexanizmlaridan foydalanish yo‘llari, sanitariya-gigiena talablari, atrofda o‘rab turgan o‘simlik dunyosi, yo‘llarning ahvoli ham hisobga olinadi. Ko‘chatzorni qishloq, shahar va aholi yashaydigan maskanlarga yaqin joylarda tashkil etish tavsiya etiladi. Yapon saforasini urug‘larini kuzda ekish mumkun ammo, O‘zbekistonning sharoitida tavsiya etilmaydi, chunki erta bahorda unib chiqgan nozik nihollar sovuqga juda sezgir bo‘lganligi uchun bahorgi sovuqlardan zararlanishi mumkun. Bahorda ekish uchun urug‘larni taylorlash uncha murakkab emas, ulani quruq holatda ham ekish mumkun, ammo o‘sish energiyasini oshrish va yaxshi unib chiqishi uchun urug‘larni issiq suvga botirib olinadi. Buning uchun urug‘larni chelak yoki bochkalarga solib (ularning hajmi-qismigacha) 80-85° S haroratli suv quyiladi 15-20 minut davomida aralashtirilib turiladi. Sovub qolgan suv to‘kib tashlanib urug‘larni brizentga yoyib yengil ya’ni urug‘lar bir-biriga pushtalarga ekiladi.

Pushtalarni tayyorlashdan oldin yer qo‘srimcha ravishda tekislanadi. Pushtalar to‘g‘ri va bir-biriga parallel ravishda joylashgan bo‘lishi va sug‘orish uchun qulay yo‘nalishda bo‘lishi pushtalarni (jo‘yaklarni) uzunligi esa 100-150 m dan oshmasligi kerak. Pushtalar orasi-70 sm, sug‘oriladigan ariqning yuqoridaqi qismining kengligi-40 sm bo‘lishi zarur. Pushtalar traktor yoki otga tirkaladigan egat olish moslamasi yordamida olinadi. Pushtalar tayyorlangandan sung ketmon bilan to‘g‘rlanadi kesaklari bo‘lsa maydalanadi, pushtani yuza qismi haskash bilan tekislanadi. Urug‘larni ekishdan oldin nazorat tariqasida sug‘oriladi.

Sho‘rlangan bo‘z tuproqli yer maydonlarida nihol yetishtirish uchun yiliga gektar hisobiga 120 kg azot va 90 kg fosfor solinadi. Ushbu o‘g‘itlarni to‘rt muddatda, ya’ni asosiy qismini urug‘larni ekishdan (azot 40 kg/ga, fosfsr 60 kg ga) va qolgan qismini ozuqa sifatida may oyining ikkinchi yarmida, iyun va avgust oylarida (azot 40+40 kg/ga, fosfor 30 kg/ga) solinadi. Ekishdan oldin beriladigan o‘g‘itlar urug‘lar solinadigan qatorning ostki qismiga solinadi. Buning uchun avval okushik bilan 8-12 sm chuqurlikda ariq olinib ularning tubiga o‘g‘it solinadi va tepe qismiga jo‘yaklar tortiladi. O‘g‘itlarni ozuqa sifatida beriladigan qismi nihollarni o‘sish davrida 10-12 sm chuqurlikga, nihollarni 15-12 sm eniga solinadi. Har bir oziqlantirishdan oldin kultivatsiya qilinadi va begona o‘tlardan tozalanadi. O‘g‘it solingandan keyin sug‘oriladi.

Nihollarni ko‘chatxonaga ko‘chirib ekilganda 1-chi yili ular deyarli o‘smasligini inobatga olib nihollarni joyida tegishli agrotexnik tadbirlar asosida yaxshilab parvarishlansa gektaridan 200-250 ming dona standart ko‘chat olish mumkin.

### 1-Jadval

#### **Yapon saforasini ko‘chatlarini joylashtirish sxemasi va ularning miqdori**

Tur nomi	Qator orasi, sm	Qatordagi ko‘chatlar orasi, sm	1 gektardagi ko‘chatlar soni, dona
----------	-----------------	--------------------------------	------------------------------------

**Xulosa.** Yapon saforasidan yukoridagilardan tashqari boshqa daraxt turlari bilan aralashtirib, sanoat korxonalar, avto va temir yo'llar atrofinio'kalamzorlashtirishda foydalanish mumkin. O'g'itlarni ozuqa sifatida beriladigan qismi nihollarni o'sish davrida 10-12 sm chuqurlikga, nihollarni 15-12 sm eniga solinadi. Har bir oziqlantirishdan oldin kultivatsiya qilinadi va begona o'tlardan tozalanadi. O'g'it solingandan keyin sug'oriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qalandarov M. O'rionchilik. o'quv qollanma. Toshkent, 2007 yil.
2. Xonazarov A. O'rmonshunoslik. Darslik. Toshkent: 1999yil.
3. Rana S.S., Suresh Kumar. Research Techniques in Agronomy. Department of Agronomy, College of Agriculture, CSK Himachal Pradesh Krishi Vishvavidyalaya, Palampur, 2014 year.

## **ATRIPLEX O'SIMLIGINI CHORVALIKDA YEM XASHAK SIFATIDA FOYDALANISH**

**Babaniyazov B.J.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasи va chorvachilik biotexnologiyalari universiteti nukus filiali

**Annotatsiya.** Atriplex o'simligi, qurg'oqchilik sharoitlariga moslashishi va yuqori to'yimlilik darajasiga ega bo'lgan yem-xashak sifatida chorvachilikda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Atriplex o'simligining oziqlanish xususiyatlari, uning chorva mollari ratsionidagi o'rni, qishloq xo'jaligida foydalanish imkoniyatlari va samaradorligi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Atriplex o'simligining foydalari, shuningdek, uni boshqa yem-xashaklar bilan birgalikda qanday qilib optimal ravishda qo'llash mumkinligi muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar.** Atriplex, chorvachilik, yem-xashak, oziqlanish, qurg'oqchilik, to'yimlilik.

Chorvachilik sohasida yem-xashakning ahamiyati har qanday xo'jalik uchun muhimdir. Oziqlanish sifatini yaxshilash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida turli xil o'simliklar, xusan Atriplex, keng qo'llaniladi. Atriplex o'simligi nafaqat qurg'oqchilik sharoitlariga moslashishi, balki yuqori oziqlanish qiymati bilan ham ajralib turadi. Ushbu maqolada Atriplex o'simligining barcha xususiyatlari va uning chorvachilikdagi o'rni batafsil muhokama qilinadi.

Atriplex o'simligi (shash) ko'p yillik o'simlik bo'lib, u yovvoyi sharoitlarda ham muvaffaqiyatli o'sishi mumkin. O'simlikning ildiz tizimi juda kuchli va chuqur bo'lib, bu uni qurg'oqchilik sharoitida ham yashashga imkon beradi. Atriplex tuproqda tuzning yuqori konsentratsiyasiga ham chidamli, bu esa uni tuzli tuproqlarda o'sishga imkon beradi. O'simlik bahorda o'sishni boshlaydi va yoz davomida tez o'sadi, hosil yig'ish davrida esa eng ko'p ozuqa moddalarini beradi.